



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3603
2025 - yil 27 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING
QARORI

**Pullik tibbiy xizmat ko'rsatadigan davolash-profilaktika
muassasalarini moliyalash tartibini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrdagi PF-2107-son "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida" Farmoniga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi qaror qiladi:

1. Pullik tibbiy xizmat ko'rsatadigan davolash-profilaktika muassasalarini moliyalash tartibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir
26-Dekabr 2024-yil
210 son



KUCHKAROV
DJAMSHID
ANVAROVICH

Vazir
24-Dekabr 2024-yil
20 son



XUDAYAROV
ASILBEK
ANVAROVICH

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya
vazirligining 2024-yil 26-dekabrda 210-son, Sog'liqni
saqlash vazirligining 2024-yil 24-dekabrda 20-son
qaroriga
1-ILOVA

**Pullik tibbiy xizmat ko'rsatadigan davolash-profilaktika
muassasalarini moliyalash**

TARTIBI

Mazkur tartib pullik xizmat ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat davolash-profilaktika muassasalarini (bundan buyon matnda davolash-profilaktika muassasalari deb yuritiladi) moliyalash va tibbiy xizmatni tashkil etish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini moliyalashtirishning
shakllari va manbalari**

1. Davolash-profilaktika muassasalarida bir vaqtning o'zida budjetdan moliyalashtirish va (yoki) o'zini o'zi moliyalashtirish shakli amal qiladi.

2. Davolash-profilaktika muassasalari moliyaviy resurslarining asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi:

davlat budjeti mablag'lari;

tibbiy sug'urta mablag'lari;

fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga mo'ljallangan maqsadli fondlarning mablag'lari;

davolash-profilaktika muassasalarining davlat tomonidan kafolatlangan hajmidan ortiqcha tibbiy yordam ko'rsatganlik uchun va pullik xizmatlar ko'rsatganlik uchun olingan mablag'lari;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda jismoniy shaxslarning sog'liqni saqlash muassasalariga ixtiyoriy va xayriya badallari;

banklarning kreditlari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

2-bob. Davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xizmatni tashkil etish

3. Davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xizmat ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi [Qonuni](#) va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Davolash-profilaktika muassasalarida davolanuvchilarga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishda barcha smeta va buxgalteriya hujjatlarini yuritish bepul va pullik xizmatlar bo'yicha alohida olib boriladi.

5. Davolash-profilaktika muassasalariga tushadigan mablag'larning alohida hisobini yuritish uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimida quyidagi tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi:

1) aholiga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish uchun budjetdan tushadigan mablag'lar uchun – g'azna hisobvaraqlari;

2) pullik xizmatdan tushadigan mablag'larni hisobga olish uchun – g'azna hisobvaraqlari;

3) ovqatlanish uchun davolanuvchilarning to'lovlaridan kelib tushadigan mablag'larni jamlash uchun – g'azna hisobvaraqlari.

6. Davlat budjetidan moliyalashtirish uchun davolash-profilaktika muassasasining daromadlar va xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali va boshqa hujjatlar Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 2634, 2014-yil 15-dekabr) belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Pullik tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan daromadlar va xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali davolash-profilaktika muassasalari tomonidan har yili tuziladi va tasdiqlanadi hamda budjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

7. Davolash-profilaktika muassasasida davolanuvchilarga pullik xizmatlar ko'rsatish ushbu maqsadlar uchun ajratilgan alohida bo'limlarda (yoki

ixtisoslashtirilgan pullik bo'lim palatalarida) amalga oshiriladi.

8. Tibbiy xizmatga to'lovning eng ko'p qiymati davolash-profilaktika muassasasi tomonidan budjet mablag'lari hisobiga ko'rsatilayotgan aynan shunday xizmatlar qiymatining 25 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

9. Tibbiy xizmat, dori-darmon vositalari va tibbiy mahsulotlar uchun to'lovlar shifoxona kassasiga naqd pul bilan yoki muassasaning hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li bilan oldindan yoki davolanuvchini kuzatish, ko'rish va davolash davrida to'lanishi mumkin. Alohida hollarda (davolash xarajatlari tibbiy sug'urta jamg'armasidan yoki xodimni ish joyidan to'lab beriladigan va boshqa holatlarda) tibbiy xizmat uchun to'lovlarni to'lash muddatlari davolash-profilaktika muassasasi va davolanuvchi o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanishi mumkin.

10. Pullik tibbiy xizmatlar bo'yicha namunaviy shartnoma shakli Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy saytida Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda joylashtiriladi.

3-bob. Davolash-profilaktika muassasalarida davolanuvchilarni dori-darmonlar bilan ta'minlash

11. Tibbiy yordamning pullik turlarini ko'rsatish uchun dori vositalari va tibbiy mahsulotlar bilan ta'minlash davolash-profilaktika muassasasi rahbariga yuklatiladi va ularning xaridi amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Dori vositalarini hisobga olish, kelib tushishini va pullik tibbiy xizmatga ishlatilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

12. Davolash-profilaktika muassasalarida davolanuvchilar tomonidan olib kelingan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlatishga ruxsat berish Alohida holatlarda tibbiyot muassasasida bemorlar tomonidan olib kelingan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlatishga ruxsat berish tartibi to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 3437, 2023-yil 30-may) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4-bob. Yakuniy qoida

13. Ushbu Tartib talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya
vazirligining 2024-yil 26-dekabrda 210-son, Sog'liqni
saqlash vazirligining 2024-yil 24-dekabrda 20-son
qaroriga
2-ILOVA

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-
huquqiy hujjatlar RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 1999-yil 2-martda 20-son bilan tasdiqlangan Pullik tibbiy xizmat ko'rsatishga bosqichma-bosqich o'tayotgan davolash-profilaktika muassasalarini moliyalash tartibi (ro'yxat raqami 679, 1999-yil 22-mart).
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2008-yil 23-aprelda 35 va 5-son "Pullik tibbiy xizmat ko'rsatishga bosqichma-bosqich o'tayotgan davolash-profilaktika muassasalarini moliyalash tartibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 679-1, 2008-yil 5-may). (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 19-son, 169-modda).